

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA DJAMILYA FAZILIDINOVNA

**KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BOGLOVCHILI
AVTOKLAVLANMAGAN GAZOBETON**

05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayeva Djamilya Fazilidinovna

Kompleks modifikatsiyalangan boglovchili avtoklavlanmagan gazobeton..... 3

Абдуллаева Джамия Фазилидиновна

Неавтоклавный газобетон с комплексно модифицированным вяжущим. 21

Abdullaeva Djamilya Fazilidinovna

Non-autoclaved aerated concrete with a complex modified binder..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA DJAMILYA FAZILIDINOVNA

**KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BOGLOVCHILI
AVTOKLAVLANMAGAN GAZOBETON**

05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Soy Vladimir Mixaylovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kondraschenko Valeriy Ivanovich
texnika fanlari doktori, professor

Sattorov Zafar Muradovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy, _____-aud.

Tel.: (99871) 299-00-01; fax: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 202 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(202 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

U.Z. Shermuxamedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

A.A. Ishanxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida energiya samaradorlik, resurs tejamkorlik masalalari energiya manbalari narxi muttasil oshib borayotgan bir vaqtda, ekspluatatsion xususiyatlari yuqori bo'lgan g'ovakli beton buyumlarini ishlab chiqarish muhim masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, issiqlik elektr stansiyalarida ko'mir yoqish natijasida katta miqdorda chiqindilar hosil bo'lmoqda. Bunday chiqindilarni issiqlik o'tkazuvchanligi past va ishlab chiqarishda kam energiya sarfiga ega bo'lgan ekologik xavfsiz issiqlik izolyasiya materiallarini ishlab chiqishda qo'llash atrof muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, avtoklavlanmagan gazobetonning fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashda, mineral va kimyoviy modifikatorlarni qo'llash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda gazobetonlarning fizik, mexanik, va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash, tarkibni optimallashtirish, bog'lovchi komponentni tejash, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, turli kimyoviy modifikatorlar va mineral to'ldirgichlarni qo'llash natijasida gazobeton massasi plastikligini oshirish, qotish muddatlarini tartibga solish va energiya tejamkor ishlab chiqarish texnologiyasi yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, mahalliy xomashyodan foydalangan holda mustahkamlik xususiyatlari yaxshilangan g'ovakli beton devorbop materiallarining energiya samaradorligini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Bunday sharoitda mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida ishlab chiqarilgan yuqori samaradorlikka ega avtoklavlanmagan gazobeton devorbop materiallarini ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shuning uchun turli tabiiy-iqlimiy va tashqi ta'sirlarga chidamli, yuklarni ko'tara oladigan, ekspluatatsion xususiyatlari yaxshilangan, takomillashtirilgan bog'lovchi moddalar asosida yangi ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobeton ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda mahalliy sanoat chiqindilari asosida, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ularning turlarini, shuningdek, resurs hamda energiya tejamkor texnologiyalarini qurilish sohasiga joriy qilishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "...Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rilsin..."¹ bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalangan holda energiya tejamkor va ekologik toza, oldindan belgilangan xossalarga ega bo'lgan qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mahalliy xomashyo asosidagi resurs tejamkor devorbop buyumlar uchun tarkib va texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-sonli “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 2022 yil 21 fevraldagi PQ-139-sonli “Uy-joylar qurilishinva qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora tadbirlarito‘g‘risida”gi qarorlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoati bilan bog‘liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chet el olimlari G.P. Saxarov, L.A. Urxanov, N. Spiratos, T.A. Shukina, G.G. Aminev, S.F. Gladkix, E.N. Leontev, V.P. Chernix, YA.B. Yakimechko, Nguen Txan Tuan, Y.F. Xoust, Charitx Xeratr, O. Richard, Ali Rushdi Axmed Ali, B. Lotxenbach va boshqalar tomonidan avtoklavlanmagan gazobeton uchun mineral va kimyoviy qo‘shimchalardan foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlari o‘rganildi va tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sohasida etakchi olimlar — A.I. Adilxodjaev, E.U. Kosimov, I.M. Maxamataliev, N.A. Samigov, A.A. Tulaganov, M.K. Tohirov, U.A. Gaziev, X.X. Komilov, S.I. Kandaxarov, Z.M. Sattorov va boshqalar kimyoviy qo‘shimchalardan foydalangan holda sementli bog‘lovchi materiallarning tarkibini optimallashtirish, sifatini yaxshilash, tannarxini kamaytirish, shuningdek, struktura va xususiyatlarini yaxshilash borasida o‘z hissalarini qo‘shib, muayyan yutuqlar va muhim ilmiy natijalarga erishdilar.

Avval o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mineral to‘ldiruvchilar va kimyoviy modifikatorlardan foydalanish, kremniy qo‘shimchalari sifatida maydalangan qumlardan foydalanish, mahalliy xom ashyolar asosida ko‘p komponentli tarkiblarni ishlab chiqish va optimallashtirish, ishlab chiqarish texnologiya parametrlarini optimallashtirish, shuningdek, gazobetonidan devorbop konstruksiyalarining tannarxini pasaytirish, sementli bog‘lovchi sarfini kamaytirish va mexanik mustahkamlikni oshirish kabi masalalar etarlicha o‘rganilmagan. SHu bois, mahalliy xom ashyolar asosida kimyoviy va dispers mineral qo‘shimchalar bilan modifikatsiya qilingan kompozitsion materiallarni ishlab chiqish iqtisodiy ahamiyatga ega va texnik jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining xalqaro ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan. Loyiha "O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish va iqtisodiy siyosat bo‘yicha konsalting" doirasida, jumladan, "Qurilish materiallarini ishlab chiqarish barqarorligi" yo‘nalishiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning maqsadi akademik tadqiqotlarni amaliyotdagi sanoat echimlari bilan bog‘lagan holda yashil industriyalashuvni qo‘llab-quvvatlashdir. Loyiha Germaniyaning Federal iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish vazirligi (BMZ) nomidan Deutsche Gesellschaft für

Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH tomonidan amalga oshirilmoqda (2024 yil).

Tadqiqotning maqsadi kompozitsion bog'lovchi va maydalangan qum asosida tayyorlanadigan, fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlari yaxshilangan avtoklavlanmagan gazobeton tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli tabiatli mineral to'ldiruvchilardan foydalangan holda avtoklavlanmagan gazobeton ishlab chiqarish uchun kompozitsion bog'lovchi tarkibini ishlab chiqish;

avtoklavlanmagan beton uchun maydalangan kvarts qumining optimal sirt yuzasini aniqlash;

avtoklavlanmagan gazobetonning tarkibini optimallashtirish va ishlab chiqilgan kompozitsion bog'lovchilar asosida texnologik parametrlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan avtoklavlanmagan gazobetonning fizik, mexanik, fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kompleks modifikatsiyalangan mahalliy mineral to'ldirgichlar va samarali kimyoviy plastifikator qo'shimchalardan tashkil topgan avtoklavlanmagan gazobeton olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy mineral to'ldirgichlar va samarali kimyoviy plastifikatordan iborat modifikatsiya qilingan qo'shimchalar kompleksiga ega bo'lgan avtoklavlanmagan gazobetonlarning tarkibi, strukturasi va xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. qurilish materiallarini sinovdan o'tkazish uchun standartlashtirilgan usullar, fizik-kimyoviy, matematik-statistik tahlil metodlari hamda zamonaviy matematik modellashtirish usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor V.I. Solomatovning "Kompozitsion qurilish materiallarining polistrukturaviy nazariyasi"ga asoslangan xolda, bog'lovchini kompleks modifikatsiyalash yo'li bilan, avtoklavlanmagan konstruksion-issiqlik izolyatsiyalovchi gazobeton uchun tarkibida kremnezyom mavjud komponent sifatida maydalangan daryo qumini ishlatish mumkinligi asoslab berilgan;

ilk bor faol mineral mikroto'ldirgichlardan: uchqindi kulni -15% va mikrokremnezyomni -10%, xamda MasterGlenium ACE 430 giperplastifikatorini bog'lovchi massasiga nisbatan 1% miqdorda kompleks qo'shishni ko'zda tutuvchi maydalangan daryo qumi asosidagi amaldagi standartlar talablariga mos keluvchi avtoklavlanmagan konstruksion-issiqlik izolyatsiyalovchi gazobetonning tarkibi ishlab chiqilgan;

mineral va kimyoviy modifikatorlar kompleksini qo'shishni ko'zda tutuvchi maydalangan daryo qumi asosidagi avtoklavlanmagan konstruksion-issiqlik izolyatsiyalovchi gazobeton kompozit takribini siqilishga mustaxkamligini optimallashtirish imkoniyatlarini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

tarkibiga mineral va kimyoviy modifikatorlarning kompleks qo'shimchali tarkibida sharli tegirmonda oldindan maydalangan kremnezem komponenti mavjud bo'lgan, avtoklavlanmagan konstruksion-issiqlik izolyatsiyalovchi gazobetonning texnologiyasi ishlab chiqilgan

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Avtoklavlanmagan gazobeton uchun optimal miqdorda faol mineral to'ldiruvchilar va kimyoviy modifikatorlardan iborat kompozitsion bog'lovchilar taklif qilindi. Bu sement sarfini uning faolligini kamaytirmagan xolda 15% ga qisqartirish imkonini berdi;

avtoklavlanmagan gazobeton kompozitsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, u D500 o'rtacha zichlikdagi, siqilishga mustahkamligi 2,7-3 MPa gacha, issiqlik o'tkazuvchanligi 0,12 Vt / m ° S gacha bo'lgan, to'suvchi konstruksiyalar uchun konstruktiv -issiqlik izolyatsion material sifatida foydalanish imkonini beradi;

kompleks modifikatsiyalangan avtoklavlanmagan gazobeton va uning asosida mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Eksperimental tadqiqotlarni zamonaviy asboblardan standart usullardan foydalanilgan holda chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tajribalarni qurilish me'yorlari va qoidalari, hamda talab etilgan davlat standartlari bo'yicha o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini yuqori aniqlikda bajarilgani, hamda ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalarining ilmiy ahamiyati maydalangan qum va takomillashtirilgan bog'lovchidan foydalangan holda modifikatsiyalangan avtoklavlanmagan gazobetonni ishlab chiqishning nazariy asoslarini o'rganishdan, shuningdek uning fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish bilan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotlarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, birinchi marta maydalangan qum, mikrokremnezyom va giperplastifikatorni o'z ichiga olgan o'zgartirilgan bog'lovchili avtoklavlanmagan gazobeton tarkibi va uni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: kompleks modifikatsiyalangan bog'lovchili avtoklavlanmagan gazobeton tarkiblari va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

«Zarif Xasanov 777» MChJ korxonasiida o'rtacha zichligi D500 markali, siqilishga mustahkamligi 2,7-3 MPa gacha, issiqlik o'tkazuvchanligi 0,12 Vt/m°C gacha bo'lgan avtoklavlanmagan gazobeton ishlab chiqarishga joriy qilingan («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2024-yil 18-noyabrdagi 04/15-3513-son ma'lumotnomasi). Natijada, uy-joy qurilishi uchun 10000 dona sifati yuqori bo'lgan avtoklavlanmagan devor bloklari ishlab chiqarilgan va yangi tarkibni joriy etishning umumiy iqtisodiy samaradorligi 10000 dona * 3000 = 30 mln so'mni tashkil etdi.

«Zarif Xasanov 777» MChJ korxonasiida ishlab chiqarishga joriy qilingan («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2024-yil 18-noyabrdagi 04/15-3513-son ma'lumotnomasi). Natijada, 1 m³ avtoklavlanmagan ko'p komponentli gazobetonni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi 15 %ni tashkil etgan bo'lsa, nuqsonlari 95 % ga kamaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiyada keltirilgan tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan 6 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 4 tasi mahalliy va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obekti va predmeti belgilanib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo'llanilgan materiallarning xossalari va tadqiqot usullari”** nomli ikkinchi bobida foydalanilgan materiallarning xossalari va tadqiqot usullari haqida ma'lumot berilgan: ishlatilgan modifikatorlarning ta'sirini aniqlash uchun fizik-mexanik, fizik-kimyoviy, matematik-statistik usullardan foydalanilgan. Tadqiqot ishida “Ohangaransment” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan CEM I 42,5N va CEM II/AK (Z-I) 42,5N markali sementlar, “Angren IES” AJdan uchuvchi kul (0,15 mm), mikrokremnezyom (MK- 85), gaz hosil qiluvchi moddalar - alyuminiy kukuni, kaustik soda, natriy sulfat va polikarboksilat Basf kompaniyasidan giperplastifikator, MasterGlenium ACE 430. Ushbu bobda xalqaro standartlarga muvofiq aniqlangan komponentlarning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Gazobeton va uning xomashyosi xossalarini aniqlash bo'yicha eksperimental ishlarning asosiy qismi Toshkent Davlat transport universitetining “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafedrasida laboratoriyasida olib borildi.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobeton tarkibini ishlab chiqish va optimallashtirish. Mineral to'ldiruvchi moddalarni tanlash va ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish”** nomli bobida mineral to'ldirgichlarning faolligi va kimyoviy-mineralogik tarkibiga ko'ra ularni tanlashga uslubiy yondashuv tanlandi. Avtoklavlanmagan gazobeton texnologiyasidagi energiyani tejash resursi kompozitsion bog'lovchilarni ishlab chiqishni nazarda tutadi, bu esa energiya sarfini tejash imkonini beradi. Ushbu jadvalda tarkibida yuqori miqdorda kremniy dioksidi bo'lgan mineral to'ldirgichli kompozitsion bog'lovchi moddani olishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazildi.

Avtoklavlanmagan gazobeton uchun tarkibida kremniy bo'lgan komponentning xomashyo bazasini kengaytirish muammosi juda keskin, chunki mahalliy qum kimyoviy tarkibi va kattaligi bo'yicha talablarga javob bermaydi. Ma'lumki, avtoklavlanmagan gazobeton texnologiyasida ishlatiladigan tarkibida kamida 90%

SiO₂ bo'lgan kvars qumlari bo'lishi va ularning tavsiya etilayotgan sirt yuzasi 2000-2500 sm²/gr bo'lishi kerak.

Universitetimizda A.I. Adilxo'jaev va uning shogirdlari rahbarligida mineral to'ldirgichlarning sirt faolligi xossalarini hisobga olgan holda, faolligi bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazildi.

Mualliflar o'z ishlarida keltirilgan gidravlik faollik koeffitsientini hisobga olgan holda mineral to'ldiruvchilarning faolligini ko'rib chiqishni taklif qildilar:

Taklif etilgan tasnifga ko'ra, tadqiqotga qabul qilingan Ppga mezoni bo'yicha mineral to'ldirgichlar quyidagi turlarga tegishli: kul - faol, mikrokremnezyom-o'ta faol. Ushbu mineral to'ldirgichlarni tanlash tarkibida faol SiO₂ bo'lganligiga asoslangan edi.



1-jadval

Qo'yliq kar'eri qumining optimal sirt yuzasini aniqlash

№	Sement	Qum S _s =1200	S _s =2400	S _s =3700	MK	Kul	S	GP	S/Q	Al,%	Na ₂ SO ₄	NaOH	Rsiq
1	1080	816			120	144	980,5	1	0.454	1,5	1	1	2,0
2	1080		816		120	144	1100,5	1	0.509	1,5	1	1	2,3
3	1080			816	120	144	1165	1	0.539	1,5	1	1	1,8


Keyingi tajribalarda 1-jadvalga muvofiq optimallashtiriladigan komponent o'zgartirildi, qolganlari esa doimiy qabul qilindi.

To'ldiruvchi ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonni tuzilishini shakllantirishda muhim omil bo'lib, ishlab chiqarishning an'anaviy texnologiyasi tarkibida 90% dan ortiq SiO₂ bo'lgan kvars qumidan foydalanishni nazarda tutadi, Toshkent shahridagi ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilayotgan qum tahlili quyidagi kamchiliklarni aniqladi - silikon dioksid miqdori past va katta hajmdagi modul qum. Tarkibida to'ldirgich bo'lgan normativ kremniy yo'qligi sababli, ishlab chiqaruvchilar bilan bir xil qumdan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilindi, bunda uning kattaligi moduli va loy va loy zarralari tarkibini sharli tegirmonda maydalash yo'li bilan kamaytirildi. Qo'yliq kar'erining qum sirt yuzasiga qarab avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamligini tekshirish natijalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Qo'yliq karerining maydalangan qumi va kulning avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamligiga ta'siri

Olingan ma'lumotlar tahlili qum sirt yuzasining ko'payishi avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi, bu esa uning solishtirma yuzasi ko'paytirilganda faol markazlar soni ko'payishi, shuningdek, yirik donalarning yo'qligi hovuzlararo parda nuqsonini kamaytirishi bilan bog'liq. Shunday qilib, biz $S_{ss} = 2400 \text{ sm}^2/\text{gr}$ bo'lgan qumdan foydalanishga qaror qildik.



2-rasm. Sirt yuzasi $8700 \text{ gr}/\text{sm}^2$ bo'lgan mikrokremnezem va GP tarkibli gazobeton mustahkamligi

Ikkinchi bosqichda ko'p komponentli, bog'lovchi tarkibni optimallashtirish bo'yicha faol mineral to'ldiruvchilarning avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamlik xususiyatlariga ta'siri o'rganildi. Natijalar 2-rasmda keltirilgan.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, sement massasining 15 foizi miqdoridagi kulning kiritilishi avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamligini oshiradi. Ko'rinishidan, bu yuqori miqdordagi kremniy dioksidi bo'lgan to'ldirgichning faolligi avtoklavlanmagan gazobetonning fizik-mexanik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, miqdorning yanada ko'payishi mustahkamlikning pasayishi S/Q ni oshishi bilan izohlanadi. Avtoklav bo'lmagan gazobetonining mustahkamligi natijalari shuni ko'rsatadiki, mikrokremnezemni 5-10% miqdorda kiritish mustahkamlikni 2,8 Mpa dan 3,2 Mpa gacha oshirish imkonini beradi. 3-jadval


Mikrokremnezyomning sement tizimiga kiritilishi gidrat fazalarining kristallanish xususiyatini sezilarli darajada o'zgartiradi, mikrokremnezyomning miqdori va tarkibidagi SiO_2 miqdori ortishi bilan portlandsementning gidratatsiya darajasi oshadi. Mikrokremnezyomning portlandsement bilan kimyoviy o'zaro ta'siri natijasida past asosli kalsiy gidrasilikatining ko'payishi sement toshining mustahkamligini oshirishga olib kelmoqda, biroq faol mineral qo'shimchaning ko'payishi bilan suv sarfi oshib borayotgani kuzatildi. Shu bois eksperimental tadqiqotlarning keyingi bosqichida superplastifikatorlar va giperplastifikatorlar ro'yxatini tahlil qildik. Bunda biz ikkita omilga tayanganimiz, bu suvga bo'lgan talabchanlikni pasaytirishi va qotish jarayoni va mustahkamlikni oshirish jarayonlarini tezlashtirishi. Bizning fikrimizcha, eng maqbuli Basf kompaniyasining MasterGlenium 430 giperplastifikatori hisoblanadi. Ushbu giperplastifikatorning avtoklavlanmagan gazobetonni tarkibidagi maqbul miqdori 2-rasmda keltirilgan.

Avtoklavlanmagan gazobetonning g'ovaklararo to'siq tuzilishini yaxshilash to'g'ridan to'g'ri S/Q ga bog'liq, shuning uchun giperplastifikatorlarni qo'llash avtoklav bo'lmagan gazobetonni tuzilishining ajralmas qismi hisoblanadi.

1% giperplastifikatorning kiritilishi mustahkamlikning sezilarli o'zgarishiga olib keladi, giperplastifikator miqdorining yanada ko'payishi ko'rsatkichlarning sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi, shu sababli maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi, bundan tashqari giperplastifikatorning ortiqcha miqdori aks etish effektiga olib keladi, bu sement toshining gidratatsiya jarayonini sekinlashtiradi va gazobeton strukturasi qovakligini pasaytiradi.

Giperplastifikatorlardan foydalanish plastiklikni yaxshilaydi, qotish vaqtini qisqartiradi, suvni ushlab turadi, sement donlarini faollashtirib bog'lovchilik xususiyatlarini oshiradi.

Alyuminiy kukuni, ishqor va natriy sulfatining qotish jarayonini tezlashtiruvchi sifatida maqbul miqdorini aniqlash natijalari 3-rasm da keltirilgan.




3-rasm. Tarkibdagi Al va NaOH ning gazobeton aralashmasining ko'tarilish kinetikasiga ta'siri

Gazobeton aralashmasining eng katta ko'tarilish ko'rsatkichi 2 va 3 tarkibda bo'ldi. Tarkibida qattiq modda massasining 1,5%i miqdorida alyuminiy kukuni va ishqor bo'lgan 2- tarkib gazobeton ko'tarilishi uchun etarlicha yopishqoqlikka ega.


Ko'tarilish jarayonlarini tartibga solish ko'p tomonlama xususiyatlarga ega va ko'plab omillarga bog'liq. Ko'tarilgan massaning cho'kib ketishini oldini olish va bir tekis g'ovakli strukturani yaratish uchun qotishni tezlashtiruvchi moddalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biz natriy sulfatni maqbul deb tanladik, uning ta'siri shundan iboratki, Ca(OH)_2 kalsiy gidroksidi bilan gidratatsiya mahsulotlari bilan o'zaro ta'sir qilganda Na_2SO_4 natriy sulfat gips, $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ hosil qiladi, bu sement gelidan yangi kristallarni xosil bo'lish jarayonini tezlashtiradi. 6-jadvalda natriy sulfatning kompozitsion bog'lovchilik avtoklavlanmagan gazobetonning mustahkamlik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha tarkiblar keltirilgan.

Natijalarni grafik bog'liqligi 4-5-raslarda taqdim etilgan.



4-rasm Natriy sulfat va haroratning avtoklavlanmagan gazobeton mustahkamligiga ta'siri

Olingan natijalar tahlili ko'p komponentli bog'lovchi uchun Na_2SO_4 maqbul miqdori (1%) doirasida ekanligini ko'rsatadi. Na_2SO_4 miqdorini bundan oshirish qotosh jarayonlarini tezlashtirib yuboradi, bu esa ko'tarilish va g'ovaklar xosil bo'lish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. tarkibga 1% Na_2SO_4 qo'shilishi hajmni 30-35%ga oshishiga va qotishiga olib keladi, bunda cho'kish va avtoklavlanmagan gazobeton strukturasi buzilishining oldi olinadi.





5-rasm. Aralashtirish vaqtining gazobeton qorishmasi hajmini oshirishga ta'siri.

Kompozitsion bog'lovchini avtoklavlanmagan gazobetonning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalariga tadqiq etish jarayonida gazobeton aralashmasini tayyorlashning texnologik parametrlari ham optimallashtirildi. Aralashmaning optimal harorati $50-55^{\circ}\text{C}$ bo'lib, bunda gaz ajralishi faollashadi.

Gaz hosil bo'lish intensivligiga va hosil bo'lgan gazning aralashmada bir tekis taqsimlanishiga aralashtirish omili ta'sir qiladi, uch daqiqa davomida mexanizatsiyalashgan aralashtirish usulida, massani gaz bilan maksimal darajada ta'minlanishi va bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi.



Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonning strukturaviy tuzilish jarayonlarini tadqiq etish

Tarkibida kremniy bo'lgan qo'shimchalarning kompozitsion bog'lovchilar tuzilishiga ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Sement toshining fizik-mexanik tavsiflari to'g'ridan to'g'ri uning tarkibi, yangi gidrat o'zaklarining kristallanish va g'ovaklilik darajasi materialning mikrostrukturasi belgilaydi.





Rasm 6. 28 sutkalik qo'shimchalarsiz sement toshi yuzasining mikrofotografiyalari

6-rasmda qo'shimchalarsiz sement toshining kesim yuzasi mikrofotografiyasi tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, u tangachali polikristal qatlamlardan tashkil topgan alohida agregat bloklardan iborat, ularga aniq parallel qatlam ko'rinishi xosdir. Kesim tekisligi qatlam hosil qiluvchi tangachalar orasidan o'tadi.




7-rasm. 1 sutkali ko'p komponentli sement bog'lovchining kesimi yuzasi mikrofotografiyalari




8-rasm. 28 sutkali olingan ko'p komponentli sement bog'lovchining kesim yuzasi mikrofotografiyalari

Kompozitsion bog'lovchilar namunalarida 1 sutkalik qotish bosqichida (7-rasm) sement toshining mikrostrukturasi kristall shakllari aniq namoyon bo'lgan yangi xosil bo'luvchi o'zaklarsiz bo'sh matritsasi bilan tavsiflanadi. 28 sutkada (8-rasm) matritsalarining mikrostrukturasi asosan zich va mayda donali faza bilan ifodalanadi, uning asosiy elementlari ignali kristallogidratlardir.

Bir vaqtning o'zida qo'shimchalarsiz sement toshi va turli kremniy tarkibli qo'shimchalar bo'lgan kompozitsion bog'lovchilar rentgenofazaviy mikroskop yordamida tahlil qilindi. Qo'shimchalarsiz bo'lgan sement toshi difraktogrammasida (9,10-rasm) asosiy gidratlar: Ca(OH)_2 , CSH tipidagi Ca gidrosilikatlari, Ca gidroalyuminatlari liniyalari mavjud.





9-rasm. 28 sutkalik qo'shimchalarsiz sement toshining difraktogrammalari





10-rasm. 28 sutkalik ko‘p komponentli bog‘lovchining difraktogrammasi

Olingan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qotishning dastlabki muddatlarida mikrokremnezyom qo‘shilgan kompozitsion bog‘lovchi yanada intensiv gidratlanadi.



11-rasm. 28 sutkalik sement toshi kesim sirtini tahlili



12-rasm. 28 sutkali kompozitsion bog‘lovchi asosidagi sement toshi kesim yuzasini tahlili

Qotishning 28 sutkasida mikrokremnezyom qo‘shilgan namuna klinker minerallari eng to‘liq gidratlanishini ko‘rsatdi; perlit qo‘shilgan namunaning mineralogik tarkibi klinker minerallarining maqbul nisbatiga ega bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida asosiy elementlar (Ca, Si, Al, Fe va boshqalar) ning taqsimlanishini o‘rganish uchun sement toshi va mikrokremenezemli kompozitsion bog‘lovchilar sirtining rentgenospektral mikrozonadal tahlili o‘tkazildi (11-12-rasm).

Spektral tahlil (15-16-rasm) shuni ko‘rsatadiki kompozitsion bog‘lovchilar asosidagi sement toshida qo‘shimchalarsiz bo‘lgan sement toshiga nisbatan Sa miqdori tabiiy ravishda kamayadi va bir vaqtning o‘zida Si va Al miqdori oshmoqda. Asosiy elementlar quyidagilardan iborat: O, Si, Ca, Al, demak, gidratatsiya jarayonida, SiO_2 , CaO; Al_2O_3 oksidlari hosil bo‘ladi. Qo‘shimchalarsiz sement toshidagi CaO miqdori

kompozitsion bog'lovchi asosidagi sement toshiga nisbatan ko'proq, bunda kompozitsion bog'lovchi asosidagi sement toshida CaO miqdori kamayadi.

Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonni texnologiyasini ishlab chiqish va optimallashtirish» nomli dissertatsiyaning to'rtinchi bobida ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonni tarkibini optimallashtirish va ishlab chiqarish, hamda ekspluatatsion xususiyatlari o'rganildi.

Tajribalarni o'tkazishda barcha omillar (kirish parametrlari: X1 - S/Q, X2 - ishqor miqdori, X3 - alyuminiy pastasi miqdori, X4 - mineral to'ldiruvchi miqdori uch darajada - asosiy (0), pastki (-1) va yuqori (+ 1) oraliqlarda o'zgarib turardi. Tajriba rejasiga kiritilmagan omillar doimiy qabul qilingan. Eksperimentlar hal etilayotgan vazifaning to'rtta omili va sharoitiga qarab V4 reja bo'yicha o'tkazildi

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olgan holda, chiqish parametrlari (o'rtacha zichlik va siqilishga mustahkamlik) tekshirilayotgan omillarga bog'liqligining matematik modeli olingan:

o'rtacha zichligi:

$$Y_1 = 283,02 - 27,22 \cdot X_1 - 11,57 \cdot X_2 - 175,21 \cdot X_3 + 57,15 \cdot X_4 + 54,7 \cdot X_1^2 + 121,78 \cdot X_2^2 + 64,48 \cdot X_3^2 + 55,28 \cdot X_4^2 + 11,52 \cdot X_1 \cdot X_2 + 21,32 \cdot X_1 \cdot X_3 - 25,51 \cdot X_1 \cdot X_4 + 11,23 \cdot X_2 \cdot X_3 + 12,5 \cdot X_2 \cdot X_4 + 16,3 \cdot X_3 \cdot X_4,$$

- siqilishga mustahkamlik:

$$Y_2 = 2,55 - 1,21 \cdot X_1 - 1,17 \cdot X_2 - 1,24 \cdot X_3 + 0,41 \cdot X_4 + 0,92 \cdot X_1^2 + 0,48 \cdot X_2^2 + 0,13 \cdot X_3^2 + 0,77 \cdot X_4^2 + 0,23 \cdot X_1 \cdot X_2 + 0,12 \cdot X_1 \cdot X_3 - 0,14 \cdot X_1 \cdot X_4 + 0,42 \cdot X_2 \cdot X_3 + 0,32 \cdot X_2 \cdot X_4 + 0,21 \cdot X_3 \cdot X_4$$

Retsepturani optimallashtirish retsept-texnologik omillarning kompozitsion bog'lovchili avtoklavlanmagan gazobeton xossalari ta'sirining eksperimental statistik modellari mavjud bo'lganda amalga oshirildi, ularning majmui uning sifatini belgilaydi.

2-jadval

Mineral to'ldirgichli avtoklavlanmagan gazobetonning optimallashtirilgan tarkiblari

Mahsulot nomi	Xajmiy zichlik	Sement M400 D20(kg)	Qum Ss=2400 sm ² /gr(kg)	Suv (l)	Alyum. Pudra PAPI (gr)	Qotish tezlashtiruvchisi Na2SO4 (kg)	Kaust soda NaOH (kg)	Min.qo' shimcha MK (kg)	GP (l)
Devorbop blok	500	285	2350	220	545	4,6	3	8,5	2,8
Devorbop blok	600	320	2350	265	545	4,6	3	9,7	3,2
Devorbop blok	700	315	2350	275	545	4,6	3	9,5	3,15

Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonning ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish

Ekspluatatsion xususiyatlar, masalan, chidamlilik ko'p jihatdan avtoklavlanmagan gazobetonning sovuqqa chidamliligiga bog'liq. Atmosfera

yogʻingarchiligi taʼsirida suvning avtoklavlanmagan gazobeton gʻovaklariga kirib borishi suvni shimish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlarni koʻp darajada gʻovakning zichligi va turlari tavsiflaydi.

Maʼlumki, betonning sovuqqa chidamliligi uning gʻovaklariga suv kirishi bilan bogʻliq. Shu bois betonning suv shimishi, oʻz navbatida, betonning tuzilishi, yaʼni oʻrtacha zichligi va gʻovakligi bilan bogʻliq.





13-rasm. Avtoklavlanmagan gazobetonning nazorat va optimallashtirilgan tarkiblarining suv shimishi va sovuqqa chidamliligini aniqlash

3-jadval

Optimallashtirilgan tarkibning sovuqqa chidamliligi va suv shimish sinovlari natijalari

No	Namuna zichligi, p	R _{siq}	Suvga toʻyin..%	M ₁ quruq	M ₂ Suvga toʻying.	sovuqqa chidaml. sikllar
1	600	2,2	20	6015	7200	15
2	600	3,5	12	6020	6720	35

Issqlik oʻtkazuvchanligi (yoki issqlik oʻtkazishga qarshiligi) - gʻovakli betonlarning issqlik izolyasiya xususiyatlarini baholash imkonini beruvchi asosiy xususiyatlaridan biri.




14-rasm Issqlik oʻtkazuvchanligi va issqlik qarshiligi koeffitsientini real vaqtda aks ettirish ossillogrammalari

Issqlik qarshiligi va boshqa issqlik-texnik tavsiflarini oʻlchash uchun statsionar rejimda «yopiq issiq plita» usuli qoʻllaniladi. Avtoklavlanmagan gazobetonning issqlik oʻtkazuvchanligini kompleks sinovdan oʻtkazish uchun oʻlchami 300x300 mm va qalinligi 15 mm boʻlgan namunalar tayyorlandi.

Materialning issqlik oʻtkazuvchanligini aniqlash avtomatik ravishda, real vaqtda, interfeysda sinov vaqti, oʻlchov harorati va quvvati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar aks

ettirilgan holda amalga oshirildi. Namunaning issiqlik o'tkazuvchanligi va issiqlik qarshiligini tekshirish natijalari 18 rasmda keltirilgan.




15-rasm. Issiqlik o'tkazuvchanlikni CEM DT-870 asbobi yordamida o'lchash,
1-pishiq g'isht, 2-bo'shliqli g'isht, 3- D600 markali gazobeton

15-rasmda uchta namunadan CEM DT-870 markali teplovizor sinovi natijalari taqdim etilgan, sinovlar natijalari ushbu materiallarning issiqlik o'tkazuvchanlik darajasini yaqqol ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, olingan avtoklavlanmagan gazobetonni DAST da ko'rsatilgan issiqlik o'tkazuvchanligi talablariga mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin.

«Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonidan kichik devor bloklari ishlab chiqarishning texnologik tartibini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslash» nomli beshinchi bobda texnologik sxema ishlab chiqilgan va ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobeton tarkibini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan.

Kompozitsion bog'lovchi asosida avtoklavlanmagan gazobetonlardan kichik devor bloklari ishlab chiqarishning texnologik tartibi 16-rasmda keltirilgan.

Ishlab chiqarish tartibi kompozitsion bog'lovchi va uning asosida avtoklavlanmagan gazobetonni olishni nazarda tutadi. Kompozitsion bog'lovchisini olish quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi: maydalangan qum dozator bunkeriga tushadi, shundan so'ng barcha me'yorlangan komponentlar ishlab chiqilgan texnik yo'riqnomaga muvofiq aralashtirgichda aralashtiriladi.



16-rasm. Kompozitsion bog'lovchi asosida avtoklavlanmagan gazobetonidan kichik devor bloklarini ishlab chiqarishning texnologik tartibi.

Ko‘p komponentli avtoklavlanmagan gazobetonni tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash

“Zarif Xasanov 777” mas’uliyati cheklangan jamiyati korxonasida avtoklavlanmagan gazobetonidan tayyorlangan kichik devor bloklari va kompozitsion bog‘lovchilarning tajriba partiyalari ishlab chiqarilib, ulardan yakka tartibdagi uy-joy qurilishida foydalanildi. Kompozitsion bog‘lovchi asosida avtoklavlanmagan gazobetonning tajriba partiyalarini chiqarish dalolatnomalari ilovalarda keltirildi.

Avtoklavlanmagan gazobeton ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun kompozitsion bog‘lovchida 1m³ avtoklavlanmagan gazobeton tannarxi bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazildi. Bunda gazobeton zichligi va tarkibiy qismlar sarfi siqilishga mustahkamligi bo‘yicha minimal markani ta’minlashni hisobga olgan holda olingan. SHunday qilib, sement qumli gazobetonning zarur mustahkamligini ta’minlash uchun material zichligi D 400,500,600 dan foydalanish kerak.

4-jadval

1 m³ gazobeton uchun material xarajatlari me’yorlari.

Maxsulot nomi	Xajmiy zichl.	Sement M400 D20(kg)	Qum S _s = 2400 sm ² /gr(kg)	Suv (l)	Alyum. Pudra PAPI (gr)	Qotish. tezl. Na ₂ SO ₄ (kg)	Kaust soda NaOH (kg)	Mineral qo‘sh. MK (kg)	GP (l)
Devor bloki	500	285	2400	220	545	4,6	3	8,5	2,8
Devor bloki	600	320	2400	265	545	4,6	3	9,7	3,2
Devor bloki	700	315	2400	275	545	4,6	3	9,5	3,15

1 m³ avtoklavlanmagan ko‘p komponentli gazobetonni ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyasiyasi 15% ni tashkil etdi, bunda nuqsonli buyumlar soni sezilarli darajada 95% ga kamaydi.

XULOSALAR

1. Eksperimental tadqiqotlar natijasida optimal sirt yuzasi S_s = 2400 sm²/gr bo‘lgan Qo‘yliq kar‘erining maydalangan qumidan aralashmani tayyorlash uchun to‘ldiruvchi sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi, mikrokremnezyomni bog‘lovchi massasidan 5-10%miqdorida kiritish sement bog‘lovchisini gidratatsiya jarayonlarini intensivlashtirish hisobiga g‘ovaklararo to‘siq hosil bo‘lish jarayonlarini tartibga soladi va mustahkamligini 2,8 Mpa dan 3,2 Mpa gacha oshirish imkonini beradi;

2.Retsept-texnologik omillarni tartibga solish hisobiga avtoklavlanmagan gazobeton samaradorligini oshirish imkoniyati o‘rnatildi, bu esa g‘ovaklararo to‘siq zichligini oshirish imkonini beradi, bu esa fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini oshiradi, shunday qilib aralashmani aralashtirishning maqbul vaqti 1-3 daqiqani tashkil etishi aniqlandi, bunda aralashma harorati esa 50 oS dan past bo‘lmasligi kerak;

3. Mineral va kimyoviy modifikatorli, maydalangan qumdagi avtoklavlanmagan gazobeton tarkibini optimallashtirish imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqildi.

4. RFA usuli bilan mikrokremnezyomning bog'lovchilarning mustahkamlik xossalari va gidratatsiyasiga ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, dastlabki qotish muddatlarida mineral qo'shimchali kompozitsion bog'lovchi yanada intensiv gidratatsiyalanadi. Bunda, 28 sutkalik qotishda kompleks modifikatsiyalangan bog'lovchili namuna klinker minerallari eng to'liq gidratlanganligini ko'rsatdi; qo'shimchali namunaning mineralogik tarkibi klinker minerallarining maqbul nisbatiga ega bo'ladi.

5. Rasterli ion-elektron mikroskopi yordamida kompozitsion bog'lovchining mikrostrukturasi tekshirildi, natijada kompozitsion bog'lovchining mikrostrukturasi bir xil zich tuzilishga ega ekanligi, uning ustuvor elementi - ignasimon shakldagi kristallogidrat ekanligi aniqlandi; kompozitning butun matritsasi bo'ylab gidrosilikatlarning aniq o'sishi kuzatiladi, bunda teshiklar va bo'shliqlar deyarli yo'q. Bir vaqtning o'zida qo'shimchalarsiz sement toshiga nisbatan kompozitsion bog'lovchi asosidagi namuna kesim yuzalarining rentgenospektral mikrozonadal tahlili o'tkazildi, bunda Ca miqdori kamayishi va Si va Al miqdorinig oshishi kuzatildi.

6. 1 m³ avtoklavlanmagan ko'p komponentli gazobetonni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi 15 %ni tashkil etgan bo'lsa, nuqsonlari 95 % ga kamaygan

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУЛЛАЕВА ДЖАМИЛЯ ФАЗИЛИДИНОВНА

**НЕАВТОКЛАВНЫЙ ГАЗОБЕТОН С КОМПЛЕКСНО
МОДИФИЦИРОВАННЫМ ВЯЖУЩИМ**

05.09.05 – “Строительные материалы и изделия”

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (разуме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Цой Владимир Михайлович

доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кондращенко Валерий Иванович

доктор технических наук, профессор

Сатторов Зафар Мурадович

кандидат технических наук, профессор

Ведущая организация:

Наманганский инженерно-строительный институт

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер - _____). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 202 года.
(протокол реестра № _____ от «___» _____ 202 года).

А.И. Адилходжаев

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанходжаев

Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность диссертационной темы. В мире на современном этапе развития промышленности строительных материалов вопросы энергоэффективности, ресурсосбережения, производство пористых бетонных изделий с высокими эксплуатационными свойствами является одним из важных вопросов. В настоящее время в развитых странах в результате сжигания угля на тепловых электростанциях образуется большое количество отходов. Применение таких отходов при разработке экологически безопасных теплоизоляционных материалов с низкой теплопроводностью и низким энергопотреблением в производстве оказывает положительное воздействие на окружающую среду. В этой связи особое внимание уделяется совершенствованию физико-механических и эксплуатационных свойств неавтоклавного газобетона путём применения минеральных и химических модификаторов.

В мире осуществляются исследовательские работы, направленные на улучшение физических, механических и химических свойств газобетонов, оптимизацию состава, экономию вяжущего компонента, совершенствование технологии производства, повышение пластичности массы, регулирование сроков схватывания газобетона в результате применения различных химических модификаторов и минеральных наполнителей, а также разработка энергосберегающей технологии производства. В этом направлении актуальной задачей исследований является разработка эффективных составов для газобетонных стеновых материалов с улучшенными прочностными свойствами, в том числе с использованием местного сырья. В связи с этим актуальной задачей является разработка нового многокомпонентного неавтоклавного газобетона на основе усовершенствованного вяжущего, устойчивого к различным природным и климатическим воздействиям, способного выдерживать внешние нагрузки и обладающего улучшенными эксплуатационными свойствами, особенно в условиях постоянного увеличения цен на энергоносители.

В нашей республике предпринимаются комплексные меры направленные на внедрение в строительную отрасль производство новых видов строительных материалов, а также ресурсо и энергосберегающих технологий на основе отходов отечественной промышленности, также ведется работа по расширению ассортимента продукции и повышению её конкурентоспособности. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» определен ряд задач, которые необходимо решить в сфере «снижения потерь в отраслях промышленности и повышения эффективности использования ресурсов и обеспечения энергоэффективности»². В рамках реализации этих задач актуальными вопросами являются внедрение инновационных технологий при производстве энергоэффективных и экологически чистых строительных материалов с использованием местного сырья и промышленных отходов,

² Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

создание и совершенствование состава и технологий для их производства. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 23 мая 2019 года № ПП-4335 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2022 года №ПП-139 «О дополнительных мерах по поддержке строительства жилья и промышленности строительных материалов», а также других нормативно-правовых документов связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Были изучены и проанализированы научные труды зарубежных ученых Г.П. Сахаров., Л.А.Урханова, Н. Спиратос, Ю.В. Т.А. Шукина, Г.Г. Аминев, С.Ф. Гладких, Е.Н. Леонтьев, В.П. Черных, Я.Б. Якимечко., Й.Ф. Нгуэн Тхан Туан, Хоуст, Чаритх Хератх, О. Ричард, , Али Рушди Ахмед Али, Б. Лотхенбач и другие, проводивших исследования по применению минеральных и химических модификаторов для неавтоклавного газобетона.

